

AMIR TEMUR BOSHQARUVI DAVLATCHILIKDAGI YUKSAK TA'LIMOT

Karshiyev Baxtiyar Egamkulovich,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
USAT, Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti
baxtiyaregemkulovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur davlatchilik tajribasi, uning siyosiy boshqaruv tamoyillari hamda harbiy-strategik qarashlarining jahon tarixidagi o'rni tahlil qilinadi. Temuriylar davlati boshqaruvida qonun ustuvorligi, markazlashgan hokimiyat va ijtimoiy adolat tamoyillarining shakllanishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Amir Temur merosining zamonaviy siyosiy tafakkur va davlat boshqaruvi tizimlariga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, boshqaruv, siyosat, davlatchilik, strategiya, adolat, tartib, harbiy, meros.

Аннотация. В данной статье анализируется государственный опыт Амира Темура, его принципы политического управления и военно-стратегические взгляды, а также их место в мировой истории. На основе исторических источников освещается формирование принципов верховенства закона, централизованной власти и социальной справедливости в системе управления государства Тимуридов. Также раскрывается влияние наследия Амира Темура на современное политическое мышление и системы государственного управления.

Ключевые слова: Амир Темура, управление, политика, государственность, стратегия, правосудие, порядок, военное дело, наследие.

Abstract. This article analyzes the statecraft experience of Amir Temur, his principles of political governance, and his military-strategic views, as well as their place in world history. Based on historical sources, the formation of the principles of the rule of law, centralized authority, and social justice in the governance system of the Timurid state is highlighted. The study also reveals the influence of Amir Temur's legacy on modern political thought and systems of public administration.

Keywords: Amir Temur, governance, politics, statehood, strategy, justice, order, military, heritage.

Kirish. O'zbek xalqi mustaqillikka erishishi bilan uning milliy o'zligini anglashga katta imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda tariximizning barcha sohalari qatorida ajdodlarimizdan qolgan siyosiy merosimizni chuqur va xolisona tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Zero, o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan bo'lib, bugungi kunda qurilayotgan davlat asoslarimiz tarixning bizga bergan tasodifiy imkoniyati emas. Tarixning ildizlar bor joyda taraqqiyot bo'lishi haqidagi o'zgarimas qonuniyatlari mavjud. Bu qoidalar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi misolida o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi davrda xalqimizning siyosiy merosini qayta tiklash va uni sayqallashtirgan, modernizatsiya etgan holda davom ettirish davr ehtiyojiga aylandi.

Mustaqillik yillarida olimlar tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli tadqiqotlar ajdodlarimizning boy tarixga, o'ziga xos milliy davlatchilik ta'limotlariga, betakror ma'naviy merosga ega bo'lganligini ko'rsatmoqda.

O‘zbekiston hududida yuzaga kelgan qadimgi Baqtriya, Xorazm, Kushon, Turk xoqonligi, Amir Temur saltanati kabi davlatlarning har birida o‘ziga xos davlat boshqaruv asoslari yaratilgan bo‘lib, o‘z davrida davlat, halq va jamiyatning tinchligi, taraqqiyoti hamda farovonligini taminlashga xizmat qilgan. Jumladan, Amir Temur saltanati yuksak davlatchilik ta’limoti yaratilgan bosqich sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Unda joriy etilgan boshqaruv asoslari o‘z davrida nafaqat mamlakat fuqarolarining manfaatlari hamda farovonligi uchun xizmat qilgan, balki g‘arb va sharq davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar, halqaro hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy barqarorligi, rivojiga ham samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Muhokama va natijalar. Amir Temur o‘z faoliyati davomida o‘zbek va dunyo xalqlari manfaatlari uchun quyidagi vazifalarni ado etdi.

- birinchidan, yurtimizda ildiz otgan mo‘g‘ullar zulmiga uzil-kesil barham berdi.
- Ikkinchidan, mayda davlatlarga bo‘linib ketgan, tarqoqlik, ichki urushlar va adolatsizliklar hukm surgan Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirib, uning boshqaruv asoslarini shakllantirdi va mustahkamladi.
- Uchinchidan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat asoslarini barpo etdi.
- To‘rtinchidan, saltanatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va manaviy asoslarini mustahkamladi.
- Beshinchidan, nisbatan qisqa vaqt ichida Movarounnahrni dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirdi.
- Oltinchidan, Osiyo, Afrika, Yevropa mintaqalaridagi xalqlarning tinchligi, farovonligi uchun katta xizmatlar qildi va halqaro maydonda adolatni taminlash uchun kurashdi.
- Yettinchidan, turli din, millat, elat vakillari o‘rtasida o‘zaro aloqalarning o‘rnatilishi oqibatida birinchi marta yagona makon va integratsiya g‘oyalari shakllana boshladi. Saltanatda islom dinining ilmiy asoslariga, bag‘rikenglik tamoyillariga tayanilib, davlat boshqaruvi amalga oshirilgan.

Amir Temurning dunyodagi eng kuchli va katta saltanatlardan birini barpo etganligi, harbiy sanati, davlatni qanday asoslarga tayanib boshqarganini anglab yetish davrlar osha tadqiqotchilar hamda siyosatchilarning, arboblarning diqqat-e’tiborini tortib kelgan.

Amir Temur goh qattiqqo‘l va zulmkor, goh adolatli va talabchan hukmdor sifatida talqin etib kelingan. Bu kabi turli baholarning paydo bo‘lishiga Amir Temur shaxsiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda yozib qoldirilgan ko‘plab manbalar sabab bo‘lgan. Xususan, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi mualliflar o‘z asarlarida Amir Temurning davlatni adolatli boshqargani, xalq va davlat manfaatlari yo‘lida keng ko‘lamli siyosat yuritgani va boshqa xislatlarini yozib qoldirgan bo‘lsa,

Ibn Arabshoh[1] «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» nomli asarida Amir Temur va uning faoliyatiga salbiy baho berib oʻtgan. Ularning koʻlami toʻgʻrisida umumiy tasavvur uygʻotuvchi bibliografik tadqiqotlar fikrimizga dalildir. Jumladan, xorij olimlaridan Lyusen Keren, Jan-Pol Ru, Beatris Forbes Mans, Xilda Xukxemlar sohibqironning hokimiyat tepasiga kelishi, davlat tuzishi, Eron, Oltin Oʻrda, musulmon davlatlari bilan munosabatlari va boshqa tarixiy jarayonlarni toʻliq ochib berishga intiladi. Unda Amir Temurning oʻz davridagi jamiyat hayotida tutgan oʻrni, din, madaniy hayot, davlat va jamiyat oʻrtasidagi aloqalar kabi masalalar umumiy holatda talqin etilgan.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda ogʻir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni taqozo qilmoqda edi. Amir Temur shuning uchun ham oʻz faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnaxrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Buni amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyandi. Amir Temur tarqoq mamlakatni birlashtirishga kirishar ekan, kurashni avvalo ichki gʻanimlaridan boshlaydi. 1370-yil bahorida Amir Temur Amir Husaynga qarshi yoʻlga chiqadi. Qoʻshin Termiz yaqinidagi Biyo qishlogʻiga yetganda makkalik shariflardan Mir Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qoʻllab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nogʻora-tabl bilan yalov-bayroq tortiq qiladi. Shubhasiz bu voqea katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur buni yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Balxga yetmasdan Oʻrpuz mavzeida u amir va noʻyonlari bilan kengash oʻtkazadi. Koʻpchilikning xohish va ixtiyori bilan, oʻsha davr qonun-qoidalariga koʻra, Suyurgʻatmish oʻgʻlon Movarounnahr podsholigi taxtiga oʻtqazildi. Amir Temur qoʻshini to Balxga yetib borgunicha, unga yoʻl-yoʻlakay yangi-yangi kuchlar kelib qoʻshildi. Shu asnoda amir Husaynni koʻpchilik amirlari tark etdilar. Jangda amir Husayn qoʻshinlari yengildi, ikki kunlik qamaldan soʻng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shaxri Amir Temurga taslim boʻldi. Amir Husayn asir olinib, qatl etildi. Bu gʻalabadan soʻng Amir Temur Movarounnahrning chingiziyulardan boʻlgan hukmdori Qozonxonning qizi Saroymulk xonimni oʻz nikohiga oladi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur “koʻragon”, yaʼni “xonning kuyovi” unvonini oldi.

Adabiyotlarda Temur haqida bir-biriga zid fikrlar mavjud boʻlib keldi, lekin ularning koʻplarida Temur faoliyatiga oʻz davri nuqtayi nazaridan emas, balki mualliflar yashagan davr nuqtayi nazari asosida baho berilgan.

“Temur tuzuklari”ni inglizchadan fransuz tiliga tarjima qilib, 1787-yilda nashr etgan fransuz olimi Lyangle Temur haqida shunday yozadi. “Temur xon siyosiy va harbiy taktika haqida risola yozgan va oʻz avlodlariga juda dono tizim qoldirgan. Biz buni tasavvur ham qilmagan edik va uning urushlarini bosqinchilik va talon-taroj qilish

deb baholab kelgan edik. Deyarli yengib bo‘lmaydigan ikki to‘siq-bizdagi taassub hamda tarixiy nohaqlik Temurni bilishimizga va to‘g‘ri baholashimizga xalaqit berib keldi”[2].

Amir Temur davlat, jamiyat hayotida bo‘lib o‘tadigan har bir muhim reja oldidan kengash o‘tkazar va bu kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temurzodalarni, balki sayyidlar, shayxlar, ilm-fan arboblari ham taklif etgan va o‘zining har bir yurishi oldidan bunday kengashlarni o‘tkazib turishni odat tusiga kiritgan.

Amir Temur ilm-fan, ma’naviyat ahliga e’tibor, mehribonlik ko‘rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, «Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzatu ikromini unga izhor qilardi»[3]. Amir Temur saroyida ko‘plab ilm-ma’rifat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu‘moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo‘lib, uning xizmatida bo‘ldilar. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e’tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida Lyangle shunday yozadi. «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik kilishga asosiy e’tiborini berardi»[4].

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu qo‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bulgan. Uning «Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim»[5] degan so‘zlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me’morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imoratu inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag‘dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsada, lekin asosiy e’tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid

qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar “Qubbat ul-ilm val-adab” unvoniga ega bo‘ldi.

Umuman olganda Amir Temurning yaratuvchanlik borasidagi ishlarida shunday ulkan ishlarni kuzatishimiz mumkinki, Amir Temur o‘z davrida Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamatli imoratu inshootlar bino qilishda ishtirok etishgan. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari Bag‘dod, Darband, Baylaqonni qayta tikladi va saltanatning barcha shaharu qishloqlarida keng bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Akademik Ibrohim Mo‘minov «Temur Samarqanddagi ahvolni butunlay o‘zgartirib yubordi. U Samarqandda Ko‘ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda mavzoleyi, Samarqand atrofida Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Behisht, Bog‘i Nav kabi bog‘ va saroylarni qurdirdi. Yo‘llar qurib, Qo‘qon-Zarafshon daryolari orqali ko‘priklar solindi, shuningdek, keyinchalik Amudaryo va Sirdaryoga ko‘prik qurildi, Toshkent atrofiga kanallar, jumladan, Sirdaryodan Ohangaronga ham kanal o‘tkazildi. Shahar tipidagi Ohangaron qishlog‘i qurildi. Buxoro, Shaxrisabz, Farg‘ona, Turkistonda karvon saroylari va boshqa qurilishlar bilan birga irrigatsiya inshootlari qad ko‘tardi. Shahar, qishloqlar, hammomlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi o‘sha davr uchun misli ko‘rilmagan miqyosda, masshtabda olib borildi” deya, sovet davridayoq uning bunyodkorligini baralla ayta olgandi. Amir Temur ortiqcha kuch talab etmasdan bu qurilishlarning ko‘pini o‘z askarlari bilan amalga oshirgandi. Askarlardan qurilish ishlarida foydalanish amaliyoti ham Amir Temur davrida shakllangan. Amir Temur saltanat qudratini qurilishlarda ham ifoda etgandi. Uning qurilishlarida Sharq va musulmon dunyosining tafakkuri o‘z ifodasini topgan.

Xulosa. Amir Temur davrida tadbirkorlik, savdo-iqtisod, hunarmandchilik, madaniyat, ilm-fan va barcha sohalar yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan. Bu fanda ikkinchi Uyg‘onish davri nomini oldi. Temuriylardan olimlar, shoirlar, ko‘plab mashhur harbiylar yetishib chiqdi. Bularga Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo va ko‘plab temuriylarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, Amir Temur davlatchiligi yuksak nazariy qoidalarga asoslangan holda boshqarilgan bo‘lib, undagi mezonlar amaliyotdan olingan tajribalar orqali shakllangan. Yuqoridagi tahlillar va dalillar asosida Amir Temur saltanatida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, siyosiy tizimda yangicha, mustahkam, o‘z davrida mavjud bo‘lgan turli boshqaruv an‘analarining maqbul jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, hamda ularga muhim ijobiy o‘zgartirishlar kiritilgan davlatchilik asoslari barpo etilgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Amir Temur davrida

shakllangan davlatchilik tajribasi milliy siyosiy tarixdagi eng rivojlangan bosqichni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibn Arabshoh «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» Arab tilidan U.Uvatov tarjimasini. 2-qism. T.. Mehnat, 1992-yil
2. Lyangle. Жизнь Тимура / Пер. с франс. Н. Суворов. Tashkent. 1890
3. Ibn Arabshoh .«Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» Arab tilidan U.Uvatov tarjimasini. 2-qism. T.. Mehnat, 1992-yil
4. Temur tuzuklari. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991
5. Madaminova, N. Z. (2023, February). Globallashuv davrida ma’naviy tarbiya masalalari zarurati. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 1, pp. 606-615).



UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE